Mazkur qayta tayyorlash kursining o‘quv dasturi
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti Kengashining
2025-yil “3” dekabrdagi 11-son qarori
bilan tasdiqlangan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“SUD EKSPERTLIK FAOLIYATI ASOSLARI: NAZARIYA, HUQUQ, PSIXOLOGIYA VA MAXSUS BILIM TALAB ETADIGAN SOHALAR”

bo‘yicha dual ta’lim shakli asosidagi qayta tayyorlash kursining

O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

I. O‘QUV KURSINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA’LIMDAGI O‘RNI

“Sud ekspertlik faoliyati asoslari: nazariya, huquq, psixologiya va maxsus bilim talab etadigan sohalar” bo‘yicha qayta tayyorlash kursining **O‘quv dasturi** (bundan keyin matnda O‘quv dasturi deb ataladi) – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarini malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida»gi 206-sonli, 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 171-son qarorlariga, 2020-yil 24-martdagi “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 180-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari sud ekspertlari (bundan keyin matnda Sud ekspertlari deb yuritiladi)ni qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, sud ekspertlarini qayta tayyorlashga qo‘yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturi tarkibida sud ekspertlarining qayta tayyorlashning dolzarbligi va oliy kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rni, maqsadi, vazifalari va o‘rganadigan muammolari, sud ekspertlarining qayta tayyorlashga jalb qilingan mutaxassislar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar tasnifi, nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, mavzuviy rejalar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar va didaktik vositalar ro‘yxatini qamrab olgan.

II. O‘QUV KURSINING MAQSADI VA VAZIFASI

“Sud ekspertlik faoliyati asoslari: nazariya, huquq, psixologiya va maxsus bilim talab etadigan sohalar” bo‘yicha qayta tayyorlash kursining **maqsadi** – tinglovchilarga O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari, ijtimoiy munosabatlar va huquq, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquq normalari, kriminalistika asoslari, tinglovchilarga tashkilotda ijro intizomini mustahkamlash, ish yuritishni takomillashtirish, boshqaruvning barcha darajalaridagi rahbarlar va mutaxassislar javobgarligini oshirish va kasb etikasiga rioya etishiga oid munosabatlar va bu sohadagi huquq normalarni o‘rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun kurs tinglovchilarning nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalar, hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

O‘quv kursining asosiy vazifalari:

- tinglovchilarga, O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari, ish yuritish va kasbiy muloqot etikasini o‘rgatish;

- tinglovchilarni sud ekspertizasi faoliyatini tartibga soluvchi protsessual qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati hamda ularni amaliyotda qo‘llash tartibi bilan tanishtirish;

- tinglovchilarni kriminalistika va sud ekspertizasiga oid mamlakatdagi hamda xorijiy davlatlardagi mavjud ilmiy axborot resurslari, ilmiy va o‘quv adabiyotlar bilan tanishtirish;

- tinglovchilarda mustaqil ravishda sud ekspertizasini o‘tkazish va sud ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish uchun zarur bo‘lgan malakani shakllantirish;

- tinglovchilarga sud ekspertiza muassasalarida ziddiyatlarni bartaraf qilish, etika qoidalari va kasbiy etiket, sud ekspertining ichki ishonchi shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatishdan iborat.

III. SUD EKSPERTLARINI QAYTA TAYYORLASHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Umumiy talablar:

Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan asosiy prinsiplar va qoidalarni bilish, qonun hujjatlari normalarini to‘g‘ri anglash va qo‘llash qobiliyati;

sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyati;

ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyati;

turli vaziyatlarga nisbatan ruhiy barqarorlik.

Maxsus talablar:

sud ekspertlari konstitusiya va qonunlarda belgilangan asosiy prinsiplarni va qoidalarni, qonun hujjatlari normalarini to‘g‘ri anglashi va qo‘llashni bilishi;

sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyatining shakllanishi;

ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyatining takomillashishi;

turli vaziyatlarga nisbatan ruhiy barqarorlikni shakllantirishi;

sud ekspertlarining ushbu normalarni qo‘llay olish amaliyotini shakllantirish va takomillashtirishi;

ekspertlarni sud-huquq islohotlarining mohiyatini va ustuvor yo‘nalishlaridan hamda jamiyat va davlat hayotida yuz berayotgan siyosiy-huquqiy islohotlardan xabardor qilish;

sud ekspertizasining tashkiliy-huquqiy asoslari, sud ekspertizasining tushunchasi, predmeti, sud ekspertlik faoliyatining obyektlari va subyektlari, sud ekspertlik tadqiqotlari, ekspert xulosasining shakli, tuzilishi va uni rasmiylashtirish hamda ekspertlik faoliyatida ekspertlar duch keladigan huquqiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholashi va sharhlashi, olingan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashi, protsessual hujjatlarni to‘g‘ri tuzishi, ekspertizalarni tayinlash va o‘tkazishda uchraydigan xatolarni aniqlashi va bartaraf etish bo‘yicha *nazariy bilimlarga ega bo‘lishi*;

olgan nazariy bilimlaridan uslubiy va amaliy vazifalarni hal etishda, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual, iqtisodiy protsessual, ma’muriy javobgarlik va ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodekslar hamda kriminalistika sohasidagi bilimlaridan foydalanish *amaliy ko‘nikmalarni egallashi*;

ekspert xulosasi/mutaxassis fikrini berishda protsessual talablarga to‘liq javob beradigan ilg‘or yuridik dalil manbasi hisoblangan hujjatni shakllantirish, qayta ekspertiza tayinlanganda birlamchi ekspertizaning huquqiy sohadagi kamchiliklarini topa olish va tegishli tartibda tuzatish *malakalarini egallashi kerak*.

MAVZULAR REJASI

T/r	Mashg‘ulotlarning mavzusi	Jami o‘quv soatlari	Shu jumladan	
			Ma’ruza	Seminar
O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari				
1.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini jamiyatda va barcha huquq sohalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bevosita qo‘llash amaliyoti	2	2	-
2.	“O‘zbekiston-2030” strategiyasi va uning mazmun-mohiyati	2	2	-
3.	O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining mazmun-mohiyati va amalda qo‘llash masalalari	2	2	-
4.	O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni mazmun-mohiyati va amalda qo‘llash masalalari	2	2	-
5.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va milliy	2	2	-

	qonunchilik			
6.	Sud-ekspertlik faoliyatida inson huquqlari va erkinliklari ta’minlanishi	2	2	**-**
Sud ekspertlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari				
7.	Sud-ekspertlik faoliyatining nazariy asoslari	2	2	-
8.	Sud-ekspertlik faoliyatida qo‘llaniladigan qonunchilik hujjatlari	4	2	2
9.	Sud-ekspertlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari	2	2	-
10.	Sud-ekspertiza muassasalari va tashkilotlari	2	2	-
11.	Sud eksperti sud-ekspertlik faoliyatining subyekti sifatida	2	2	-
12.	Sud ekspertizalarini o‘tkazish tartibi	4	2	2
13.	Ekspertiza (tadqiqotlar) natijalarini rasmiylashtirish jarayoni	4	2	2
14.	Sud ekspertizalarini tayinlash va o‘tkazish: xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari	2	2	-
Kriminalistika asoslari				
15.	Kriminalistikaning predmeti, vazifalari va tizimi	4	2	2
16.	Kriminalistik identifikatsiya va diagnostika	4	2	2
17.	Kriminalistika metodlari	4	2	2
18.	Jinoyat protsessida maxsus bilimlar va ulardan foydalanish shakllari	2	2	-
19.	Sud kriminalistik ekspertizalarini tashkil qilish va o‘tkazish tartibi	2	2	-
Ish yuritish va kasbiy muloqot etikasi				
20.	Kasbiy muloqot qoidalari va so‘zlashuv etikasi	2	2	-
21.	Xizmat odob – axloqi va ish yuritish etikasi	2	2	-
Sud-ekspertlik faoliyatining psixologik jihatlari va maxsus bilim talab etiladigan sohalar				
22.	Sud ekspertiza muassasalarida ziddiyatlar va etika qoidalari	2	2	-
23.	Sud-ekspertlik faoliyatida psixologiyaning o‘rni.	2	2	-
24.	“LEGALTECH” huquqiy faoliyatda axborotli-texnologiyaviy xizmat ko‘rsatish sohasi	2	2	-
Jami		**60**	**48**	**12**

III. ASOSIY NAZARIY QISM (MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI)

1-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini jamiyatda va barcha huquq sohalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bevosita qo‘llash amaliyoti

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari va sud ekspertlik faoliyatidagi ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari, aybsizlik prezumpsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga so‘nggi yillarda kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar.

2-mavzu: “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va uning mazmun-mohiyati

Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish. Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish. Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

3-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining mazmun-mohiyati va amalda qo‘llash masalalari

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va o‘zaro nisbati. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar. Normativ-huquqiy hujjatlarni e’lon qilish, ularning kuchga kirishi va amal qilishi. Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish va ta’minlash. Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash va davlat hisobiga olish.

4-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunining mazmuni va amalda qo‘llanilishi.

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunning ahamiyati, zaruriyati, tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tushunchasi va turlari. Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalari faoliyati. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqlari kafolatlari. Murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot olishga doir so‘rov instituti va uning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlaridan farqi. Murojaatlarni ko‘rib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, davlat organlarining, tashkilotlarning va ular mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlari.

5-mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va milliy qonunchilik

Korrupsiya tushunchasi, turlari, sabablari va ijtimoiy xavfliligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati va uni amalga oshirish mexanizmlari. Korrupsiyaviy huquqbuzarlik uchun javobgarlik. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirishda yuridik xizmatning roli.

6-mavzu. Sud-ekspertlik faoliyatida inson huquqlari va erkinliklari ta’minlanishi

Inson huquqlarini himoya qilishda ekspertning roli. Sud-ekspertining mustaqilligi va xolisligi. Ekspertiza o‘tkazishda shaxsiy huquqlarning cheklanmasligi. Maxfiylik va ma’lumotlar himoyasi. Ekspertlarning kasbiy malakasi va javobgarligi. Sud-ekspertlik faoliyatining xalqaro me’yorlarga muvofiqligi.

7-mavzu. Sud-ekspertlik faoliyatida qo‘llaniladigan qonunchilik hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida” 2010-yil 1-iyundagi № O‘RQ-249-son qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4125-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida” 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori

8-mavzu. Sud-ekspertlik faoliyatining nazariy asoslari

“Sud-ekspertlik faoliyati” tushunchasi va huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplari. Sud ekspertizasining predmeti, obyektlari va uslubiyoti.

9-mavzu. Sud-ekspertlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunining ahamiyati, maqsadi va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid Farmon va qarorlaridan kelib chiqadigan vazifalar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-son qarorining mazmun-mohiyati.

10-Mavzu. Sud-ekspertiza muassasalari va tashkilotlari

Davlat sud-ekspertiza muassasalari va ularning turlari. Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari. Sud-ekspertiza muassasalari rahbarlarining vakolatlari. Sud ekspertiza muassasalari va tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi. Sud ekspertiza muassasalarining xalqaro hamkorligi.

11-mavzu. Sud eksperti sud-ekspertlik faoliyatining subyekti sifatida

“Sud eksperti” tushunchasi va unga qo‘yiladigan malakaviy talablar. Sud ekspertining huquq va majburiyatlari. Sud ekspertlarining malakasi va huquqiy bilimlarini oshirish. Nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash.

12- mavzu. Sud ekspertizalarni o‘tkazish tartibi

Sud ekspertizalarni o‘tkazish asoslari va muddatlari. Sud ekspertizalarining tasniflanishi. Sud ekspertizalarining protsessual turlari. Sud ekspertizalari o‘tkazilayotganda protsessning boshqa ishtirokchilarining hozir bo‘lish masalalari.

13- mavzu. Ekspertiza (tadqiqotlar) natijalarini rasmiylashtirish

Ekspertning xulosasi. Ekspert xulosasini tuzish tartibi. Xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi dalolatnoma. Xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi dalolatnomani tuzish tartibi.

14- mavzu. Sud ekspertizalarini tayinlash va o‘tkazish: xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Sud ekspertlik faoliyatidagi xatolar tushunchasi va ularning tasniflanishi (protsessual turdagi, gnoseologik (mantiqiy) va harakatdagi (operatsion) xatolar). Sud ekspertlik faoliyatida uchrab turadigan xatolarning obyektiv va subyektiv sabablari. Sud ekspertlarining xatolarini aniqlash mumkin bo‘lgan holatlar. Sud ekspertizasining turidan qati’iy nazar, sud ekspertlari xatolarining oldini olish bo‘yicha yondashuvlar.

15- mavzu. Kriminalistikaning predmeti, vazifalari va tizimi.

Kriminalistika kursi, kelib chiqish tarixi, uning tushunchasi va huquqiy asoslari. Predmeti, obyektlari va subyektlari. Kriminalistikaning yuridik va boshqa kurslar bilan aloqalari.

16- mavzu. Kriminalistik identifikatsiya va diagnostika.

Kriminalistik identifikatsiya tushunchasi, vazifalari, prinsiplari va shakllari. Kriminalistik identifikatsiya obyektlari. Identifikatsiya obyektlarining tasnifi. Identifikatsiya tadqiqot jarayoni. Kriminalistik diagnostika.

17- mavzu. Kriminalistika metodlari

Kriminalistikada qo‘llaniladigan metodlar tasnifi. Umumilmiy kriminalistik metodlar. Maxsus kriminalistik metodlar.

18- mavzu. Jinoyat protsessida maxsus bilimlar va ulardan foydalanish shakllari.

Maxsus bilimlar tushunchasi va mazmun mohiyati. Maxsus bilimlarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o‘rni. Maxsus bilimlarning tizimi va subyektlari.

19- mavzu. Sud kriminalistik ekspertizalarini tashkil qilish va o‘tkazish tartibi

Jinoyat ishi uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlar. Jinoyat ishlari bo‘yicha ekspertiza o‘tkazishda maxsus tekshirish. Ekspert oldiga qo‘yilgan savollar. Ekspertiza o‘tkazish chog‘ida foydalaniladigan obyektlar.

20- mavzu. Kasbiy muloqot qoidalari va so‘zlashuv etikasi

So‘zlashuv etikasining kasbiy muloqotda tutgan o‘rni va vazifalari. Sud ekspertining ish jarayonida bilishi lozim bo‘ladigan kasbiy muloqot qoidalari. So‘zlashuv etikasini rivojlantiruvchi omillar. So‘zlashuv etikasining mutaxassis faoliyatiga ta’siri.

21- mavzu. Xizmat odob – axloqi va ish yuritish etikasi

Kasbiy faoliyatni amalga oshirish prinsiplari. Sud ekspertining odob – axloqining ahamiyati. Moddiy manfaatdorlik turlari. Manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo‘l qo‘ymaslik. Korrupsiyaga qarshi kurashda ishtirok etish. Kasbiy faoliyati davomida o‘ziga ma’lum bo‘lgan axborotni saqlashni va maxfiyligini ta’minlash. Qonunga xilof xatti – harakatlarni sodir etishdan tiyilish. Odob – axloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik. Ish yuritish qoidalari.

22- mavzu. Sud ekspertiza muassasalarida ziddiyatlar va etika qoidalari

Sud ekspertiza muassasalaridagi ziddiyatlar tushunchasi va vujudga kelish bosqichlari. Sud ekspertiza muassasalarida ziddiyatlarni bartaraf qilish. Sud ekspertiza muassasalarida etika qoidalari. Sud ekspertiza muassasalarida kasbiy etiket.

23- mavzu. Sud-ekspertlik faoliyatida psixologiyaning o‘rni

Sud ekspertlik faoliyatining kriminalistik va psixologik jihatlari. Sud ekspertizalarini o‘tkazishni bilish va kommunikativ bosqichlari. Sud ekspertining ichki ishonchi tushunchasi, shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. Sud eksperti ichki ishonchining o‘ziga xos omillari.

24- Mavzu. “LEGALTECH” huquqiy faoliyatda axborotli-texnologiyaviy xizmat ko‘rsatish sohasi

“LegalTech” va uning ahamiyati. Yuridik ma’lumotlarning elektron bazalari (E-database). Onlayn tartibida beriladigan yuridik maslahatlar (E-consulting). Elektron hujjatlarni saqlash va ularning almashinuvi. (E-documentary). Blokcheyn va aqlli shartnomalar (bitim). Intellektual mulkda “LegalTech”. Nizolarni muqobil hal qilishda “LegalTech”. “LegalTech” va sun’iy intellekt.

IV. SEMINAR MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg‘ulotlarida tinglovchilar o‘z bilimlarini chuqurlashtirib, ular bo‘yicha o‘z fikrlarini mustaqil ifoda eta olish ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib boradilar. Buning uchun o‘qituvchi mashg‘ulotlar jarayonida muammoli, bahsli vaziyatlarni yaratishi lozim bo‘ladi.

O‘qituvchi berilgan savolga javob berish jarayonida tinglovchi tomonidan hayotiy misollar keltirish, ularni hozirgi zamon voqea-hodisalari bilan bog‘lab borish katta ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlar davomida jahonda sodir bo‘lgan voqea-hodisalar bo‘yicha tinglovchilarda mustaqil savollar, testlar tuza olish hamda qo‘yilgan savollarga to‘g‘ri, aniq javob berish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish tavsiya etiladi.

V. REFERAT TAYYORLASH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

O‘quv kursining yakunida tinglovchi mutaxassislik doirasida tanlangan mavzu bo‘yicha malakaviy ishini (referatni) himoya qiladi. Referat kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak.

Malakaviy ish (referat) yozilishida qo‘yiladigan texnik talablar:

- 15–20 bet hajmdan kam bo‘lmasligi;
- Times New Roman, 14 shriftda;
- 1.5 intervalda, har bir bet yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega bo‘lishi;
- matnning har bir qatorida so‘zlar ko‘chirilmasdan tugallangan bo‘lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar malakaviy ishini (referatni) umumiy hajmiga kirmaydi.

Tinglovchi tomonidan referat uchun amaliy mashg‘ulotlari olib borilayotgan tashkilotdan biriktirilgan amaliyot rahbarlaridan tashqi taqriz olinishi lozim.

Malakaviy ish (referat) tinglovchi tomonidan shaxsan tayyorlanishi shart. Tinglovchi referatni yozishda ilmiy izlanishlar olib borish etikasiga qat’iy rioya etishi, jumladan plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek soxta iqtiboslar keltirishga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Malakaviy ishda (referat) qog‘oz yoki elektron ko‘rinishda nashr qilingan o‘zga matndan olingan manbaaga hech qanday havola qilmagan holda ishlatish yoki olingan manbaaga havola qilingan bo‘lsada, lekin o‘zlashtirishlarning hajmi va xususiyati ishning mustaqil yozilganligiga shubha uyg‘otadigan darajada o‘zlashtirilgan bo‘lsa plagiat deb topiladi. Bunday vaziyatda malakaviy ishga (referat) 0 (nol) ball bilan baholanadi.

Elektron portfolio ko‘rsatkichlari va onlayn test sinovlari natijalari asosida tinglovchilarga malakaviy ishini (referatni) himoya qilishga ruxsat beriladi.

Malakaviy ish (referat) himoyasi kurs yakuni bo‘yicha yakuniy nazoratni o‘tkazuvchi komissiya a’zolari tomonidan referat mavzusining dolzarbligi, referatni yoritishda tinglovchining mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi, tinglovchining referat himoyasiga tayyorligi, xulosa va tavsiyalar asoslanganligi, referatda adabiyotlardan foydalanilganligi kabi mezonlarga asosan100 ballik tizim asosida butun sonlar bilan baholanadi. Referat himoyasi uchun har bir tinglovchiga 10-15 daqiqa vaqt beriladi.

Malakaviy ish (referat) himoyasi bo‘yicha to‘plangan ball belgilangan umumiy ballning 56 foiz va undan ortiq bo‘lganda tinglovchi “qoniqarli” baholangan deb hisoblanadi. Umumiy ballning 55 foizi va undan kam ball olgan tinglovchiga 3 kun ichida qayta himoyaga kirishiga ruxsat beriladi.

Malakaviy ish (referat) himoyasida qoniqarsiz baho olgan tinglovchilar kurs yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan yakuniy nazorat imtihoniga kiritilmaydi.

VI. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

O‘quv kursi bo‘yicha o‘quv materiallarini kengroq egallash va tinglovchilar dunyoqarashini boyitish maqsadida o‘qituvchilar tomonidan tinglovchilarga mustaqil ta’lim uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi. Tinglovchilar mustaqil ta’limda kursning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

– darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha kurs boblari va mavzularini o‘rganish;

– maxsus adabiyotlar bo‘yicha kurslar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash.

VII. O‘QUV DASTURINI O‘ZLASHTIRISH VA TA’LIM JARAYONLARINI TA’MINLASHGA MO‘LJALLANGAN O‘QUV VA METODIK MATERIALLAR

O‘quv jarayonini tashkil etish:

O‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, masofaviy ta’lim hamda o‘quv mashg‘ulotlarining interfaol “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamoa bo‘lib ishlash” hamda bilim va ko‘nikmalar berishning boshqa zamonaviy shakllari joriy etiladi.

O‘quv materiallari:

ma’ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va kurs bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezentatsiyalar va h.z).

O‘quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yohud masofaviy topshiriqlar;

amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va h.z.).

O‘quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta’minoti:

shaxsiy kompyuter – o‘qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi;

multimedia qurilmasi, ekran smart-televizor.

VIII. YAKUNIY NAZORAT

O‘quv dasturining barcha mavzulari bo‘yicha yakuniy nazorat test shaklida o‘tkaziladi va baholanadi.

IX. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ASARLARI:

Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni kat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 508 b.

Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.

Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – 452 b.

Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA BOSHQA ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni. (yangi tahriri).

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni.

Azizxujaev A.A. va boshq. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: O‘zbekiston, 2008.

Qayumov R.Q. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: Adolat, 1998.

Fayziev M. O‘zbekiston Konstitutsiyasining mohiyati (o‘quv qo‘llanma). – T.: Adolat, 1998.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 24.10.2025-y., 03/25/1092/0976-son);

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son);

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son);

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.08.2025-y., 03/25/1083/0769-son);

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-m. (Ushbu Farmon «Xalq so‘zi» gazetasining 2017-yil 8-fevraldagi 28 (6722)-sonida e’lon qilingan);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4125-son qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19-yanvar 2019. 07/19/4125/2510-son;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 270-son qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 338-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni

tasdiqlash haqida” 180-son qarori.

Kriminalistika va ekspertiza.Darslik. yu.f.n. prof. v.b. D.Bazarova, yu.f.d. dos.I.R.Astanov –Toshkent: TDYU, 2020. –618b.

Kriminalistika: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik Mualliflar: F.Abdumajidov va boshqalar. T.: “Adolat", 2003 - 362 b.

Kriminalistika. I-jild. 2008.

Kriminalistika. Sxemalar. Rustambayev M.H. 2011.

Sud-huquq islohotlari zamirida ekspertiza institutini takomillashtirishning jinoyat-prosessual va kriminalistik jihatlari. 2015. Astanov I. R.

Alimjonova Z., To‘laganov A.N., Nutq san’ati.– T., Fan, 2005.

Djuldiqaraeva X. Nutq san’ati (Talaffuz texnikasi).– T., O‘zDSI, 2008. 3. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat (Notiq, nutq, mantiq). – T., Adolat, 2005. 4. Qilichev E., Qilichev B.E. Notiqlik madaniyati. Buxoro, 2005.

Opalev A.V. Umeniye obrashatsya s lyudmi. Etiket delovogo cheloveka. – M., 2016.

Psixologiya menedjmenta: Uchebnik. / Pod red. G.S.Nikiforova. 2-ye izd. dop. i pererab. – SPb.: Piter, 2004.

Psixologiya i etika delovogo obsheniya /Pod red. V.N. Lavrinenko. – M., 2001.

INTERNET SAYTLAR VA DAVRIY NASHRLAR:

https://lex.uz

https: //www.norma.uz/

https://advice.uz/

https://huquqiyportal.uz/

https://strategy.uz/